

# “Ammofos-Maxam” Ajda Navro’z sayli o’tkazildi

// 19.03.2025

<https://uzkemyosanoat.uz/oz/press/news/ammofoz-maxam-ajda-navro-z-sayli-o-tkazildi>



Bugun “Ammofos-Maxam” Ajda “Qadriyating boqiy bo’lsin, Navro’z” shiori ostida bayram sayli tashkil etildi. Tadbir doirasida sex va bo’linmalar tomonidan yurtimiz viloyatlarining tarixi, milliy qadriyatlari va an’anaviy taomlari namoyish etildi.

Sayl davomida har bir jamoa o’z viloyatini eng yorqin va mazmunli tarzda taqdim etishga intildi. Ishtirokchilarning ijodkorligi, bayramona kayfiyat va xalqona udumlar tadbiriga alohida fayz bag’ishladi.



Tashkil etilgan tanlov natijalariga ko'ra, quyidagi jamoalar g'olib deb topildi:

- 1-o'rinn - ITKTL (Qoraqalpog'iston Respublikasi)
- 2-o'rinn - Kapital qurilish boshqarmasi (Namangan viloyati)
- 3-o'rinn - EFK-3 sexi (Andijon viloyati)



G'oliblar Kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.



**“Ammofos-Maxam” AJ Matbuot xizmati**